

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

Barnoqulova Marjona Bahodir qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Shopulatova Nasiba Umirovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning intellektual va emotsional rivojlanishida muhim davr bo'lib, aynan shu jarayonda mustaqil, noodatiy va kreativ fikrlash ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Maqolada ijodiy fikrlashning mohiyati, uning tarkibiy qismlari (moslashuvchanlik, originallik, tezkorlik, muammoga yangicha yondashuv) hamda ularning psixologik asoslari yoritiladi. Shuningdek, o'quv faoliyati, motivatsiya, tasavvur va emotsional muhitning ijodiy tafakkur rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirishda muammoli vaziyatlar yaratish, interfaol metodlardan foydalanish, mustaqil topshiriqlar berish va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitni tashkil etish muhim omil ekanligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ijodiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirish va shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qilishini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ijodiy fikrlash, kreativlik, psixologik mexanizmlar, tafakkur, motivatsiya, tasavvur, originallik, moslashuvchanlik, muammoli vaziyat, interfaol metodlar, shaxs rivojlanishi.*

Abstract: *This article analyzes the psychological mechanisms of developing creative thinking in primary school students. Primary education is an important stage in a child's intellectual and emotional development, during which independent, original, and creative thinking skills begin to form. The article reveals the essence of creative thinking, its structural components (flexibility, originality, fluency, and innovative problem-solving), as well as their psychological foundations. Furthermore, the influence of learning activities, motivation, imagination, and the emotional environment on the development of creative thinking is scientifically substantiated. It is emphasized that creating problem-based situations, applying interactive teaching methods, assigning independent tasks, and organizing a supportive psychological environment are significant factors in fostering creativity in primary school students. The research findings confirm that the development of creative thinking contributes to improving educational effectiveness and ensuring the comprehensive development of the individual.*

Keywords: *primary education, creative thinking, creativity, psychological mechanisms, thinking, motivation, imagination, originality, flexibility, problem-based situation, interactive methods, personal development.*

Аннотация: В данной статье анализируются психологические механизмы развития творческого мышления у учащихся начальных классов. Начальное образование является важным этапом интеллектуального и эмоционального развития личности, именно в этот период формируются навыки самостоятельного, нестандартного и креативного мышления. В статье раскрывается сущность творческого мышления, его структурные компоненты (гибкость, оригинальность, беглость, новый подход к решению проблем), а также их психологические основы. Кроме того, научно обосновывается влияние учебной деятельности, мотивации, воображения и эмоциональной среды на развитие творческого мышления. Подчеркивается, что создание проблемных ситуаций, использование интерактивных методов обучения, предоставление самостоятельных заданий и организация поддерживающей психологической среды являются важными факторами формирования творческого мышления у младших школьников. Результаты исследования подтверждают, что развитие творческого мышления способствует повышению эффективности обучения и всестороннему развитию личности.

Ключевые слова: начальное образование, творческое мышление, креативность, психологические механизмы, мышление, мотивация, воображение, оригинальность, гибкость, проблемная ситуация, интерактивные методы, развитие личности.

Zamonaviy ta'lim tizimi shaxsning har tomonlama rivojlanishini, ayniqsa mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa bu jarayonning poydevorini yaratadi. Aynan 6–10 yosh oralig'ida bolaning tafakkuri faol rivojlanib, uning tasavvuri, qiziqishi va bilishga intilishi kuchayadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasi psixologik va pedagogik jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Psixologiya fanida ijodiy fikrlash shaxsning yangicha g'oya yaratish, muammoga noodatiy yondashish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashning rivojlanishi murakkab psixologik jarayon bo'lib, u tafakkur, tasavvur, xotira, emotsiya va motivatsiya kabi psixik jarayonlarning o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik, avvalo, bolaning bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji va qiziqishidan boshlanadi. Agar o'quvchi o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lsa, unda yangilik yaratishga intilish kuchayadi. Ijodiy fikrlashning asosiy tarkibiy qismlariga moslashuvchanlik, originallik, tezkorlik va muammoni yangicha hal etish qobiliyati kiradi. Moslashuvchanlik bolaning bir vaziyatdan ikkinchisiga oson o'ta olishi, fikrni turli yo'nalishlarda davom ettira olishini bildiradi. Originallik esa noodatiy, boshqalarnikiga o'xshamagan g'oyalarni ilgari surish qobiliyatidir. Tezkorlik ko'plab g'oyalarni qisqa vaqt ichida ilgari surish imkonini beradi. Ushbu sifatlar o'quv faoliyati jarayonida muntazam mashq va qo'llab-quvvatlash orqali rivojlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual salohiyatini rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tadbiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste'dod, barcha yoshlarimizga tug'ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, mahalla, o'quv muassasalari zimmasiga tushadi. Bolalar o'zidagi turli faoliyatlarga bo'lgan tug'ma layoqatlarni jamoada, o'z ustida tinmay ishlash jarayonida ro'yobga chiqaradilar. Maktablardagi sinf hamda jamoa, guruhlar, to'garaklar, fan olimpiadalarida ishtirok etish tug'ma layoqatlarning imkoniyatlaridir. Shuningdek, o'quv va mehnat faoliyatida bolalarning layoqatlari uyg'onadi va qobiliyatlari o'sadi. Iste'dod tushunchasining asosiy mazmuni "qobiliyat» degan tushunchani ham anglatadi.

Quyida yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish usullaridan foydalanish haqida na'munalar keltiramiz: Aql charhi mashqlarini o'tkazish: bunga turli rebuslar, krasovordlar yechish, shaxmat va shashka o'yinlarini musobaqa shaklida tashkil etish kiradi. Yosh qalamkashlar to'garaklarini o'tkazish: bunga yoshlarning ijodiy mahoratini, iste'dodini oshirib borishga qaratilgan tadbirlari majmuasi kiradi. Masalan, yoshlar orasida yetishib chiqayotgan yozuvchi va jurnalistik mahoratga ega bo'lgan yoshlar bilan ishlash. Chaqqonlar va epchillar sport o'yinlarini o'tkazish: bunga barcha turdagi sport musobaqalarini o'tkazish kiradi. Mushoira, g'azalxonlik ko'rik tanlovlarini o'tkazish: bu usulga yoshlarning she'r va g'azallar orqali ijod qilishi kiradi. Bunga "She'r kechasi" tadbirlarini o'tkazish kiradi. Quvnoqlar va zukkolar tanlovlarini o'tkazish: bu tanlov orqali yoshlarning san'at, teatr va rassomchilikka bo'lgan qiziqishi orttiriladi va zukkolik mahorati baholanadi. Ustoz-shorgird ishlarini takomillashtirish: bu usulni amalga oshirish uchun eng yaxshi ish olib borayotgan shogirdlari undan juda mamnun va minnatdor bo'lgan pedagog-ustozning ishlarini ommalashtiriladi. Albatta yoshlarning ijodiy barcha ishlarini va iste'dodli mahoratlarini baholash, ularni turli sovg'a va faxriy yorliqlar bilan mukofotlash maqsadga muvofiqdir. Yuqorida keltirilgan nazariy holat va amaliy misollarga qaramay qobiliyat va uning rivojlanish muammosi psixologiya va pedagogikaning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Qobiliyat sezgi analizatorlari, kuch, harakat hamda asabiy, jismoniy va aqliy jarayonlar muvofiqlashishi kabi nerv sistemasi xususiyatlariga bog'liq bo'lgan tabiiy iqtidor, iste'dod, shuningdek, tashqi ijtimoiy muhit ta'siri ostida rivojlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhitda ta'lim tarbiyaga bolaning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan munosabatda bo'lishda sabr-toqat, vazminlik zarur. Bolaning ijodiy imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyatli omillar quyidagilar:

- vaqt chegarasi;
- stress holati;
- yuqori tashvish holati;
- tezda yechim topish istagi;

- muayyan echim uchun qat'iy chegaralarning mavjudligi;
- oldingi muvaffaqiyatsizliklardan kelib chiqadigan ishonchsizlik;
- qo'rquv;

Ijodkor yoshlarni tarbiyalash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchiliklarni ham tugatish mumkin.

2. Tarbiya inson faoliyatining istiqbol maqsadini belgilaydi. Shu bois u shaxs kamolotini ta'minlashda yetakchi rol o'ynaydi.

3. Insonning ma'naviy o'sishi sodir bo'ladi, Masalan, bola o'z ona tilini atrofni o'rab turgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni maxsus ta'lim yo'li bilangina o'rganadi. Ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

4. Tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarini ham ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi, ba'zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug'iladi (kar, ko'r, soqov va hokazo).

Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqli to'la taraqqiy qiladi, tug'ma kamchiligi bo'lmagan kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin. Tabiiyki, o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishishlari uchun ta'lim maskanida olgan bilim, ko'nikma va malakalari kamlik qiladi. Ular yuksak maqsad yo'lida o'z ustilarida tinmay izlanishlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishlari lozim. Fanlarda o'zlashtira olmagan o'quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi – har bir o'quvchining yosh va psixologik xususiyatini chuqur o'rganish, uning qiziqishi va istaklarini aniqlash, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni ko'rishdir. Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Psixolog olim Lev Vygotsky ijodiy tafakkurning rivojida ijtimoiy muhit va hamkorlik muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Uning fikricha, bolaning “yaqin rivojlanish zona si”da tashkil etilgan faoliyat ijodiy salohiyatni yuzaga chiqaradi. O'qituvchi tomonidan berilgan yo'naltiruvchi savollar, muammoli vaziyatlar va ijodiy topshiriqlar o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, Jean Piaget nazariyasiga ko'ra, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo'lib, ular aniq predmetlar va tajriba asosida fikrlaydi. Shu bois ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ko'rgazmali vositalar, tajribalar, rolli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy fikrlashning psixologik mexanizmlaridan yana biri tasavvurdir. Tasavvur bolaga mavjud bilimlarni yangicha kombinatsiyada qo'llash imkonini beradi. Masalan, hikoya tuzish, rasm chizish, dramatizatsiya qilish kabi faoliyat turlari tasavvurni kengaytiradi va ijodkorlikni kuchaytiradi. Emotsional muhit ham muhim omil hisoblanadi. Qo'llab-quvvatlovchi, ijobiy va erkin fikr bildirishga imkon beruvchi muhitda bola o'z g'oyalarini qo'rqmasdan ifoda etadi. Motivatsiya ijodiy faoliyatning ichki harakatlantiruvchi kuchidir. Rag'batlantirish, e'tirof etish va muvaffaqiyat hissini boshdan kechirish o'quvchining ijodiy

faolligini oshiradi. Aksincha, haddan tashqari tanqid yoki qat'iy nazorat ijodiy tashabbusni susaytirishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi baholash jarayonida ham qo'llab-quvvatlovchi yondashuvni tanlashi lozim.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish — “aqliy hujum”, klaster tuzish, muammoli savollar, kichik guruhlarda ishlash — ijodiy tafakkurni faollashtiradi. Mustaqil topshiriqlar va ochiq javobli savollar o'quvchining erkin fikrlashiga sharoit yaratadi. Natijada bola nafaqat bilimni o'zlashtiradi, balki uni yangicha talqin qilishga ham o'rganadi. Umuman olganda, ijodiy fikrlashning rivojlanishi murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, u o'quv faoliyati, psixologik muhit va pedagogik yondashuv bilan uzviy bog'liqdir. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchining ichki salohiyatini yuzaga chiqaradi va uning mustaqil, tanqidiy hamda kreativ fikrlashini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Ijodiy tafakkur tasavvur, motivatsiya, emotsional muhit va ijtimoiy hamkorlik asosida shakllanadi. O'qituvchining qo'llab-quvvatlovchi yondashuvi, muammoli vaziyatlar yaratishi va interfaol metodlardan foydalanishi ijodkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim bosqichida ijodiy fikrlashni rivojlantirish shaxsning kelajakdagi intellektual va ijtimoiy muvaffaqiyatining poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lev Vygotsky. Mind in Society. Cambridge: Harvard University Press.
2. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. London.
3. Torrance E.P. Creativity in the Classroom. New York.
4. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent.
5. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston, NMIU, 2018. – B. 570
7. 2. Raxmatullaeva N.B. Ernazarova M.S Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqini muloqatini rivojlantirish. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal (3) III/2020. ISSN 2181-063X.-6 s.